


PEDAGOGIK MAHORAT

4(2)
2024



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

4-son (2024-yil, aprel)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH			
15.	MURODOVA Sitorabonu Bahodir qizi	“Aromatik uglevodorodlarning nomlanishi va izomeriyasi” mavzusini o‘qitishda zamonaviy kimyoviy kompyuter dasturlaridan foydalanish	74
16.	AMINOV Bahrom Burxonovich	Umumta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida kompyuter imitatsion modellaridan foydalanishning pedagogik jihatlari	79
17.	JABBAROV Anvar Egamovich, AXMEDOV Nurali Odilovich	Pozitsion va metrik masalalarni ishlash	84
18.	САФАРОВА Нафиса Сулаймоновна	Фармацевтик кимё машғулотдарида вазиятли масалаларни қўллаш методикаси	88
19.	SIROJOV Burxon Shodiyevich	Talabalarga avtomatlashtirilgan nazorat o‘lchov asboblari fanini virtual laboratoriylar asosida o‘qitish metodikasi	93
20.	XUDOYNAZAROVA Gulbahor Akiyevna	Talabalarga polimer makromolekula zanjirining tuzilishini axborot texnologiyasi orqali tushuntirish uslubiyoti	99
21.	ZIKIRYAYEVA Manzura Mavlonovna	Tibbiyot talabalarida klinik amaliyot davrida mantiqiylarini shakllantirishning usul va yo‘llari	105
22.	PAXMATOVA Фируза Maxsuжоновна	Бўлажак муҳандисларнинг лойихалаш-конструktorlik kompetenцияларини ривожлантириш - педагогик муаммо сифатида	110
23.	PROTASOV Yorqinjon Yoqubjon o‘g‘li,	Python dasturlash tilida arifmetik amallarni bajarish metodikasi	114
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT			
24.	DO‘STOV Jonibek Amriddinovich	Sport turizmi vositasida bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida kasbiy sifatlarni rivojlantirish	121
25.	Ravshanov Bexruz Xasanovich	Infokommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda bo‘lajak mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning holati va dolzarb muammolari (Jismoniy tarbiya yo‘nalishi misolida)	125
SAN’AT			
26.	OSTONOVA Gulshod Razzoqovna	O‘zbekiston tasviriy san’atida tarixiy janrning rivoji	130

SAN’AT

O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA TARIXIY JANRNING RIVOJI

Ostonova Gulshod Razzoqovna,

Buxoro davlat universiteti

Tasviriy va amaliy san’at kafedrasi dotsenti, p.fff.d (PhD)

Ushbu maqolada O‘zbekiston tasviriy san’ati taraqqiyotining muhim tamoyillari, XX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrdagi tasviriy san’atning barcha turlaridagi tamoyillarning o‘xshashligi taraqqiyoti haqida fikr yuritilgan. O‘zbekistonga olib kelingan yevropacha klassik tasviriy mакtab tili o‘zbek tasviriy san’at mакtablari, xususan o‘rta asrlar miniyaturlari milliy badiiy an’analari bilan uyg‘unlashib ketganligi haqida ma’lumot berilgan. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi va undagi eksponatlar tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlari, rangtasvir, grafika, devoriy suratlar, haykaltaroshlik, gobelen kabilar haqida ma’lumot berilgan. Taniqli tasviriy san’at ustalari Malik Nabiev, Chingiz Axmarov, Rahim Ahmedov, Abdulhaq Abdullaev, Ne’mat Qo‘ziboev, Ro‘zi Choriyev, Sa’dulla Abdullaev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov kabilar asarlarini yaratilishi haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, asarlar, taniqli san’at ustalari, tarix, muzey.

РАЗВИТИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО ЖАНРА В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА

В данной статье рассматриваются важные принципы развития изобразительного искусства Узбекистана, сходство принципов во всех видах изобразительного искусства в период до второй половины 20 века, развитие мысли. Сообщается, что привнесённый в Узбекистан язык европейской классической художественной школы сочетается с национальными художественными традициями узбекских художественных школ, особенно средневековой миниатюры. Даны информация о Государственном литературном музее имени Алишера Навои и его экспонатах, исторических произведениях искусства, живописи, графике, фресках, скульптурах, gobelenах. Даны краткие сведения о творчестве таких известных художников, как Малик Набиев, Чингиз Ахмаров, Рахим Ахмедов, Абдулхак Абдуллаев, Немат Козибоев, Рузи Чориев, Садулла Абдуллаев, Джавлон Умарбеков, Бахадыр Джалолов.

***Ключевые слова:** изобразительное искусство, произведения, известные художники, история, музей.*

THE DEVELOPMENT OF THE HISTORICAL GENRE IN THE VISUAL ARTS OF UZBEKISTAN

In this article, the important principles of the development of the visual art of Uzbekistan, the similarity of the principles in all types of visual art in the period up to the second half of the 20th century, and the development of thought are discussed. It is reported that the language of the European classical art school brought to Uzbekistan has been combined with the national art traditions of Uzbek art schools, especially medieval miniatures. Information is given about the Alisher Navoi State Literature Museum and its exhibits, historical works of art, paintings, graphics, murals, sculptures, and tapestries. Brief information about the creation of the works of famous artists such as Malik Nabiev, Chingiz Akhmarov, Rahim Ahmedov, Abdulhaq Abdullaev, Ne’mat Koziboev, Rozi Choriev, Sadulla Abdullaev, Javlon Umarbekov, Bahadir Jalolov are given.

***Keywords:** fine art, works, famous artists, history, museum.*

Kirish. Har bir millat o‘z kelajak avlodida komillikni ko‘rishni orzu qiladi. O‘zbek xalqi o‘z madaniyati va ma’naviyatida komil insonlar tarbiyasiga alohida e’tibor bergan va bunday komillik darg`alarini yetishtirish har bir zamonda muhim sanalgan. Inson kamolotida esa jismoniy va ma’naviy go‘zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bugungi kunda yurtimizda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan, intiluvchan va serg`ayrat yoshlarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar, yaqin yoki olis o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to‘qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroficha yoritish maqsadida to‘qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arkiv materiallari, xotiralar va h.k.) asosida o‘rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o‘sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o‘tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga nisbatan hurmat tuyg‘usini uyg‘otish va shu yo‘l bilan ma’rifatli avlodni tarbiyalash; zamondoshlarni tarixiy o‘tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqealarga tarixiy o‘tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir.

Tasviriy san’atda Tarixiy janr jamiyat tarixidagi ijtimoiy siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy voqealar va arboblarni tasvirlashga asoslanadi. Odatda o‘tmishni tasvirlaydigan Tarixiy janr, shuningdek, yaqin o‘tmishda ro‘y bergen va tarixiy ahamiyati zamondoshlar tomonidan tan olingan voqealarni aks ettirishni ham o‘z ichiga oladi; ko‘pincha maishiy janr, portret, manzara kabi boshqa janrlar bilan, ayniqsa, harbiy voqealarning tarixiy mazmunini yorituvchi batal janri bilan chatishib ketadi. Tarixiy janr rivoji tarixiy nuqtayi nazarlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar taraqqiyoti bilan, yuksalish davrlari esa ijtimoiy qaramaqshiliklar sharoiti, ijtimoiy harakatlar, millatlarning o‘zligini anglashining o‘sishi, san’atda ilg‘or ijtimoiy g‘oyalarni aks ettirilishi bilan bog‘liq. Tarixiy janrda ko‘pincha tarixiy kuchlarning dramatik to‘qnashuvi, milliy ozodlik kurashlari, xalqqa tarixni harakatga keltiruvchi faol kuch sifatida qarash kabilalar uzining badiiy ifodasini topadi. Tarixiy janr qadimdan — ibtidoiy jamoa davridan bo‘lib o‘tgan muhim voqealarni eslash, xotirlash va shu xotiralarni tasvirlash zaminida yuzaga kelgan. Old Osiyo, Kad, Misr, O‘rta Osiyo, Eron hududlarida harbiy yurishlar, podsho, harbiy qo‘mondonlarning faoliyatini madh etuvchi ko‘p jussali murakkab kompozitsiyali asarlar yuzaga kelgan; mamlakatlar ichki hayoti, tashqi aloqalar, elchilar qabuli va boshqa voqealar rassomlar va haykaltaroshlarning asarlarida o‘z ifodasini topdi. Jumladan, Tuproqqa‘a devoriy rasmlari va haykallari, Afrosiyob devoriy rasmlari va boshqa Yunonistonda muhim voqealar, tarixiy shaxsning qiyofalari afsonaviy obraz va kompozitsiyalarda ifodalandi. Qad. Rimda Tarixiy janr o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarildi, asarlar o‘zining o‘ta realligi va tafsiloti bilan diqqatga sazovor, bu jihatlar, ayniqsa, relyefli kompozitsiyalarda namoyon bo‘ldi. O‘rta asrlarda diniy mavzulardagi asarlarda tarixiy voqealar ham tasvirlandi. Osiyo mamlakatlarida Tarixiy janrda salmoqli asarlar yaratildi, bu ayniqsa, devoriy rasmlar va voqeaband relyeflarda ko‘p uchraydi, miniatyura va monumental san’atda keng rivojlandi.

Asosiy qism. O‘zbekiston tasviriy san’atida Tarixiy janr qadimdan shakllangan va taraqqiy etgan. Tarixiy janrning dastgoh shakllari 20-asr 30-y.laridan rivojlandi. Mahalliy rassomlardan B.Hamdamiy, A. Abdullayev, Sh.Hasanova va boshqa ijodida tarixiy shaxslarni gavdalantirish muhim o‘rin tutadi. 50—60-yillardan o‘zbek tasviriy san’atiga keng ko‘lamda mahalliy rassomlarning kirib kelishi Tarixiy janr mavzu va uslubining rangbarangligini ta’minladi. M.Nabiiev, R. Choriyev, J.Umarbekov va boshqa rassomlar ijodida Tarixiy janrga oid asarlar yuzaga keldi. Mustaqilliqdan so‘ng tarixga, o‘tmishga murojaat etish va e’tiborning ortishi Tarixiy janri yanada yuksalishini belgilab berdi: Jaloliddin Manguberdi, Al-Farg‘oniy, Amir Temur kabilarga bag‘ishlangan tarixiy turkum asarlar yaratildi.

O‘rta asrlar miniatyurasi milliy maktablarining mavjud xususiyatlarini tasviriy san’at ustalari tomonidan chuqurroq o‘rganishga intilish XX asr ikkinchi yarmidagi tarixiy janrdagi O‘zbekiston tasviriy san’ati taraqqiyotining muhim tamoyillaridan biri bo‘lib qoldi. Ushbu janrdagi yo‘nalish xalq badiiy an’analariiga bo‘lgan qiziqish, uning ifodasi mazmuni va ayniqsa, shaklini aholining tasviriy merosi bilan boyitishga bo‘lgan intilish tufayli vujudga keldi. XX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrdagi tasviriy san’atning barcha turlaridagi tamoyillarning o‘xshashligi taraqqiyot birligini aks ettirdi, u yosh iqtidorlarni ochishga ham, o‘ziga xos maktab sifatidagi tasviriy san’at umumiy o‘zbek maktabini shakllanishiga ham yordam berdi. O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi kolleksiyalardan tarixiy janrdagi ko‘plab asarlarda ana shu tamoyillardan biri namoyon bo‘ldi.

O‘zbekistondagi milliy maktab doirasida tasviriy san’atning boshqa turlari kabi tarixiy janr ham XX asrning ikkinchi yarmida jadal rivojlandi. Milliy maktabning o‘ziga xosligini qandaydir umumiy xususiyatlarga taqab bo‘lmaydi. U bu xususiyatlarning betakrorligida namoyon bo‘ladi, ularning har biri alohida olingan holatda ham umuminsoniy mulk hisoblanadi.

O‘zbekistonda bu davrlarda yaratilgan tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlari tomoshabin ko‘z oldida fikrlar, hissiyotlar va shakl-shamoyil, usullarning ko‘pqirrali ranginligini namoyon qildi. Zero, bunda ularning o‘ziga xosligi tashqi ko‘rinishlaridagina emas, balki rassom ongingin chuqur qatlamlarida va uning xalqining madaniy tajribasida vujudga keladi.

XX asr ikkinchi yarmidagi milliy tasviriy san’at maktabining muhim farqlaridan biri O‘zbekistondagi yirik respublika ko‘rgazmalarida kuzatildi, rassomning tarixiy vogelik sifatidagi milliy estetik an’analarga e’tiborida ko‘rindi. Haqqoniy tarix urf-odatlarni, jo‘shqin maylni, insoniy timsollarning axloqiy qonunlarini belgilab beradi, ular bir millatga mansub insonlarning bir-biriga, tabiatiga va tashqi olamga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Bu an’ana avloddan-avlodga o‘sib boraveradi, xalqning ma’naviy va moddiy madaniyatining barcha yodgorliklarida o‘z aksini topadi.

Rassom shaxs sifatida shakllanib borgani sayin o‘z xalqi an’analari, hayot tarzini o‘zida singdirib boraveradi. Har bir katta tasviriy san’at asarlari uchun dolzarb bo‘lgan milliy etik o‘z-o‘zini anglash muammosining murakkabligi shunda. O‘tgan asrning boshlari va ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoga, xususan O‘zbekistonga olib kelingan yevropacha klassik tasviriy mакtab tili o‘zbek tasviriy san’at maktablari, xususan o‘rta asrlar miniatyuralari milliy badiiy an’analari bilan uyg‘unlashib ketdi. Olamni badiiy aks ettirish tilining bu uyg‘unlashuvi ijodiy izlanishlar va tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarini yaratish jarayonida tarixiy mavzulardagi devorilari suratlari va rangtasvir asarlarida o‘z aksini topdi.

Taniqli san’at ustalari Malik Nabiiev, Chingiz Axmarov, Rahim Ahmedov, Abdulhaq Abdullayev, Ne’mat Qo‘ziboyev, Ro‘zi Choriyev, Sa’dulla Abdullayev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov kabilar o‘z asarlarini shunday yaratdilar va yaratmoqdalar.

Ular yaratgan asarlar O‘zbekiston va xorijdagи ko‘plab muzeylar, galereyalar, davlat muassasalarida namoyish etilmoqda. 1939-yili Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyini tashkil etilishi bu davr tasviriy san’ati rivojidagi asosiy omillardan biri bo‘ldi. Muzey buyuk shoir tavalludiga 500 yil to‘lishiga bag‘ishlandi. Muzeyning ochilishi olimlar, adabiyotchilar va rassomlarni buyuk shoir hayoti sahifalari haqida yangidan-yangi asarlar yaratishga ilhomlantirdi.

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi 1968-yili rasman ochildi, unga xalq oqib keldi. Ochilishida ko‘plab xorijiy, boshqa Respublikalardan, O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyatlaridan kelgan ko‘plab mehmonlar ishtirok etdi. Muzeyni ochilishi buyuk shoir tavalludiga 525 yil to‘lishiga bag‘ishlandi. Muzeyning ochilishi olimlar, adabiyotchilar va rassomlarni buyuk shoir hayoti sahifalari haqida yangidan-yangi asarlar yaratishga ilhomlantirdi.

Umuman jamiyatda va uzoq xorijda ham buyuk shoir Alisher Navoiy haqida eshitmagan odam kam topiladi. Muzey rasman ochilganidan keyin uning direktori ko‘p marotaba xorijga xizmat safariga borib keldi. Xizmat safaridan u Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari miniatyura asarlaridan, qo‘lyozmalardan, litografiyalardan nushalar, Alisher Navoiy davriga tegishli bo‘lgan tasviriy va amaliy san’at asarlaridan fotonushalar olib keldi.

Ko‘p yillar davomida muzeyda badiiy ekspert komissiyasi ishladi. Shuni ta’kidlash lozimki, Alisher Navoiy nomidagi muzeyda saqlanayotgan XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan tarixiy janrdagi ko‘pgina tasviriy san’at asarlari yuksak badiiy saviyaga ega. Bu asarlar saviyasi Hamid Sulaymonov, Rahim Ahmedov, Chingiz Ahmarov, Ne’mat Qo‘ziboev singari mashhur olimlar va rassomlar a’zo bo‘lgan martabali ekspert komissiyasi tomonidan ko‘p bora muhokama qilingan edi, negaki muzey direktori o‘sha davrdagi eng etuk Navoiyshunoslar, shuningdek, tasviriy san’atning barcha turlari ustalaridan iborat eng yaxshi mutaxassislarni yig`gan edi.

Yarim asrdan keyin ularning sotib olingan eksponatlarning sifati haqidagi fikrlari o‘z tasdig‘ini topdi. Muzeyda tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlaring ko‘plab turlari yig`ilgan edi. Bular rangtasvir, grafika, devoriy suratlar, haykaltaroshlik, gobelen kabilardan iborat bo‘lgan edi. Ulardan ko‘pchiligi sotib olingan bo‘lib, Chingiz Ahmarovning devoriy suratlari esa Hamid Sulaymonov hayotligi chog‘ida ishlangan edi. Muzeyda 17 mingdan ortiq san’at asari va 65 ming litografik kitoblar saqlanadi. Ular muzeyning to‘rt qavatida namoyishga qo‘yligan va XV-XX asrlar madaniyati va san’atini aks ettiradi.

Tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlari, rangtasvir, grafika, devoriy suratlar, haykaltaroshlik, gobelen kabilalar haqida ma’lumot berilgan.

Ikkinchi qavatda Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Bobur davrlari haqida hikoya qiluvchi zallar bor. O‘zbek klassik adabiyoti, rus va Evropa adabiyoti, jadid ma’rifatparvarlar obrazlarini aks ettiruvchi tasviriy san’at asarlari, litografiyalar uchinchi qavatdagi zallarda joylashgan. Muzeyda mingdan ortiq qo‘lyozmalar asrab-avaylab saqlanayotgan fond bor.

Shuningdek muzeyning ikkinchi qavatida Alisher Navoiy davrini aks ettiruvchi tarixiy janrdagi asarlar namoyishga qo‘yligan. Ular Alisher Navoiyning ijodiga, adabiy merosiga, qo‘lyozma nushalariga, haykallari va rangtasvir portretlari, shoirning hayotidan hikoya qiluvchi tasviriy san’at asarlariga bag‘ishlangan. Tarixiy mavzudagi tasviriy san’at asarlaridan iborat boy kollekstiya ziyyolilar va talabalar e’tiborini tortadi.

O’sha yillari tarbiya va ta’lim tizimida zakovat va ijodning roli oshgan edi. “Ijod faqat ma’lum ijtimoiy muhitda bo’lishi mumkin. Faqat ma’lum muhitdagina kashfiyotlarga, ulardan jamoatchilik hayotida foydalanishga qiziqish bo’lishi mumkin, ijtimoiy muhitning o’zi esa madaniyatning noyob hodisalaridan biri hisoblanadi”. Aynan shu qulay muhit tufayli bu yillarda Alisher Navoiyning ijod namunalarini yangi nashrlari va unga bag`ishlangan ijodiy va badiiy asarlar ko‘plab yaratildi.

Muzeylar, ko‘rgazma zallari va ma’rifiy tashkilotlar o’nlab yillar davomida keng tomoshabinlar ommasini estetik tarbiyalash tajribasini orttirdilar. San’at va tomoshabinlar o’rtasida haqiqiy muloqotni chuqurlashtirish va kengaytirishga yordam beruvchi ish shakllari zarur bo’ldi. Masalan XX asr ikkinchi yarmida Davlat san’at muzeyini rassom Somiq Abdullaev va etakchi san’atshunos mutaxasislar tomonidan mahorat bilan boshqarilganligi tufayli muzeyga tomoshabinlar jalb etish uchun ko‘p ishlar qilindi. Bu maskan Respublikaning turli burchaklaridan kelgan xalq ommasi ko‘p tashrif buyuradigan muzey bo‘lib goldi, bu erga ko‘plab xorijiy mehmonlar kelib, tarixiy mavzudagi ko‘plab rangtasvir asarlari bo‘lgan muzey eksponatlari bilan tanishayaptilar.

Tasviriy san’atning tarixiy janri XX asrning ikkinchi yarmida tasviriy san’at tizimiga zamon mafkurasining tazyiqiga qaramay, san’at ustalari tomonidan yaratilgan asarlar tufayli katta o‘rin tutdi.


Muzey rivojining har bir bosqichi mazmuniy teranlik va ifodaviy vositalar boyligini yangilash va izlanishlar omili bo‘lib xizmat qildi, o‘z davrining etakchi yo‘li va shakl-shamoyili tamoyillarini ifodaladi. O’sha davrlarda yaratilgan tarixiy janrdagi asarlar ezgulik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan hayot tufayli vujudga keldi. Bu g‘oyalarga xurmat O‘zbekistonda davlatchilik qurilishida ko‘p xizmat qilgan va madaniyatimizning ma’naviy va moddiy boyligini yaratgan olimlar, yozuvchilar va boshqa barcha kasb egalariga ehtirom sanaladi.“Har qanday davlat bu butun jamiyatni yaratish natijasidir. Yaratuvchanlikni esa ijodiy tafakkur va mehnatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Odamlar turlicha bo‘lganligi tufayli o‘z shaxsiyatiga xos va xilma-xil fikrlaydi va harakat qiladi. Shu sababli taraqqiy etgan, ilg‘or davlatni shakllantirish uzoq davom etadigan, ijodiy jarayon hisoblanadi. U ko‘plab odamlarning yaratuvchanlik faoliyatini qamrab oladi. Ular umumiy maqsad uchun o‘z halovatidan kechganlar”.

Bularning barchasida O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixiy janrdagi asarlariga xos bo‘lgan ma’lum xalqona tarbiyaviy yo‘nalish jamlangan. U o‘z navbatida tabiatiga, xalqni ma’naviy tarbiyalashdek o‘z ijtimoiy vazifasini bajarishga intildi. Bu jarayon tasviriy san’at tanqidi va uni ommalashtirish bilan shug`ullanayotgan gumanitar sohalar mutaxassislar oldiga yangi vazifalar qo‘ydi.

Xulosa. Tasviriy san’at tarixiy janri taraqqiyoti manfaati yuzasidan tasviriy san’at ustalarining barcha ijodiy izlanishlarini madaniyatshunoslik va san’atshunoslik nuqtayi nazaridan aks ettiruvchi va anglovchi joriy badiiy amaliyotni mufassal tahlil qilish talab etiladi. Bevosita tomoshabinlar ommasiga qaratilgan targ‘ibot ishlari nihoyatda muhimdir. Bunda muzeylarda, badiiy galereyalar va ko‘rgazma zallarida ishlayotgan mutaxassislar tajribasiga ehtiyoj ortaveradi. Yangi g‘oyalalar, mavzular, hayot talablari asosida ifodaviy usullar kabilar bilan boyib, yangilanib borayotgan tasviriy san’at tarixiy janrlaridagi asarlar tomoshabinlarda ko‘plab savollarni uyg‘otmoqda. Omma va tasviriy san’at tarixiy janrlari o’rtasidagi muloqot samarali bo‘lishi kerak. Ammo shuni unutmaslik kerakki, tasviriy san’atda ijodiy tafakkurning jonli harakati nafaqat ijodkorlar, balki ijod namunalari tomoshabinlari orasida ham o‘z ustida ma’naviy ishlar olib borishni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mamatov Ulug‘bek. O‘zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlari (XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari).
2. O‘zbekiston badiiy akademiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti. Rustam Xudayberganov “Tasviriy san’atda rang” (Tasviriy san’at fakulteti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2004.
3. Abdurasulov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san’at. Toshkent. Cho‘lpon. 2006 yil.
4. Abdullaev N. San’at tarixi. Toshkent: “San’at”, 2001.
5. Abdullayev N. “O‘zbekiston san’ati tarixi” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, Toshkent. – 2007.
6. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. “Tasviriy san’at”. - Toshkent Cho‘lpon. 2006 yil .
7. Hasanov Rahim.Tasviriy san’at asoslari. –Toshkent. - 2009 y.
8. Ostonova G.R. “Tasviriy san’atda buyuk siymolar” Monografiya. Durdona nashriyoti. – 2021 y.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnalni
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab,
kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo’llanma sifatida xizmat qilishi
shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o’tamiz, maqola qo’lyozmalari universitet
tahririyanashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g’aznachiligi
23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 400110860064017094100350005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

**PEDAGOGIK
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik
jurnal**

2024-yil 4-son (103)

**2001-yil iyul oyidan
chiqa boshlagan.**

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliv o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Nigora SAYFULLAYEVA
Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA
Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida
sahifalandi. Chop etish sifati uchun
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 29.04.2024
Bosmaxonaga topshirish vaqtı

30.04.2024

Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8

Tezkor bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog‘i – 20,6

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma № 21

Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT”
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri
Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.